Ingliz tilini öqitişda interaktiv metodlarnjng samaradorligi

Iroda Yormamatovna Beknazarova
irodabeknazarova77@gmail.com
Çaros Otayor-qizi Abdullayeva
Samarqand davlat çet tillar instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida ingliz tilini öqitiş samaradorligini oşirişda interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarning örni ilmiy-metodik jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda kommunikativ yondaşuv (J.C.Riçards, T.S.Rodgers) hamda ijtimoiy-madaniy nazariya (L. Vygotskiy) asosida «Role-play», «Hot Seat», «Four Corners» kabi interaktiv metodlarning talabalarning törtlamçi nutqiy könikmalarini (tinglab tuşuniş, gapiriş, öqiş, yoziş) rivojlantirişdagi ahamiyati oçib berilgan. Şuningdek, Quizizz, Kahoot, Wordwall kabi raqamli platformalar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalaniş orqali ta'lim oluvçilarning motivatsiyasini oşiriş hamda öqituvçining facilitator sifatidagi örni tahlil qilingan.

Kalit sözlar: interaktiv metodlar, kommunikativ yondaşuv, rolli öyinlar (Role-play), «Hot Seat», «Four Corners», raqamli texnologiyalar, ingliz tilini öqitiş, nutqiy könikmalar, pedagogik mahorat

The Effectiveness of Interactive Methods in Teaching English

Iroda Yormamatovna Beknazarova
irodabeknazarova77@gmail.com
Charos Otayor-qizi Abdullayeva
Samarkand State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article highlights the scientific and methodological significance of interactive methods and digital technologies in enhancing the effectiveness of teaching English within the modern educational process. Based on the communicative approach (J. C. Richards, T. S. Rodgers) and sociocultural theory (L. S. Vygotsky), the study reveals the role of interactive methods such as «Role-play», «Hot Seat», and «Four Corners» in developing students' four primary language skills (listening, speaking, reading, writing). Furthermore, the paper analyzes the potential of digital platforms (Quizizz, Kahoot, Wordwall) and artificial intelligence tools in boosting learners' motivation, alongside examining the instructor's role as a facilitator.

Keywords: interactive methods, communicative approach, role-play, «Hot Seat», «Four Corners», digital technologies, English language teaching, language skills,

(cc) BY

pedagogical competence

Kirish. Bugungi globallaşuv davrida ingliz tilini örganiş va örgatiş kölami jadal rivojlanib, ta'lim tizimida xorijiy tillarni özlaştiriş uçun keng imkoniyatlar hamda zamonaviy pedagogik şaroitlar yaratilmoqda. Xususan, an'anaviy grammatik-tarjima usullaridan voz keçilib, öquvçilarning muloqot kompetensiyasini şakllantirişga qaratilgan kommunikativ va interaktiv yondaşuvlar ta'lim amaliyotiga faol tatbiq etilmoqda [1]. Interaktiv metodlar ta'lim oluvçilarning darsdagi psixologik tösiqlarini olib taşlaş, nutqiy faolligini oşiriş va til örganiş jarayonini qiziqarli hamda oson keçişini ta'minlaşda muhim örin tutadi [2].

Interaktiv ta'limning eng samarali vositalaridan biri «Role-play» (Rolli öyinlar va sahnalaştiriş) metodi hisoblanadi. Uşbu metod öquvçilarga turli real hayotiy vaziyatlarni (masalan, aeroportda, şifoxonada yoki mijozlar bilan muloqotda) imitatsiya qiliş imkonini beradi. Rolli öyinlar davomida öquvçi faqatgina luğat va grammatik qoidalarni yodlab qolmay, balki til birliklarini mos kontekstda qöllaş könikmasini rivojlantiradi [3]. Natijada, ta'lim oluvçilarda erkin sözlaşiş (fluency) şakllanib, öz fikrini xorijiy tilda ifodalaşdagi tortinçoqlik va qörquv hissiyotlari barham topadi [4-6].

Öquvçilarning luğat boyligini oşiriş va tezkor fikrlaş qobiliyatini çarxlaşda «Hot Seat» («Issiq örindiq») metodi yuqori natija beradi. Uşbu öyinda bir öquvçi doska oldida sinfga teskari holda ötiradi, doskaga yozilgan yangi sözni esa qolgan öquvçilar ta'rif, sinonim yoki antonimlar orqali tuşuntirib berişadi [4, 7-8]. «Hot Seat» metodi nafaqat örindiqda ötirgan öquvçining söz boyligini sinovdan ötkazadi, balki barça öquvçilarni tuşuntiriş beriş jarayonida (paraphrasing) faol iştirok etişga undaydi, bu esa leksik birliklarning uzoq muddatli xotirada saqlanib qolişini ta'minlaydi [5, 9-10].

Fikr bildiriş, argumentatsiya va akademik munozara könikmalarini şakllantirişda esa «Four Corners» («Tört burçak») interaktiv metodi alohida ahamiyatga ega. Sinf xonasining törtta burçagi ma'lum bir pozitsiya (masalan: *«Töliq qöşilaman»*, *«Qisman qöşilaman»*, *«Qöşilmayman»*, *«Umuman qöşilmayman»*) sifatida belgilanadi hamda muammoli mavzu örtaga taşlanadi. Öquvçilar öz qaraşlariga mos burçakni tanlab, öz fikrlarini mantiqiy dalillar (evidence) bilan asoslab berişadi [6, 11]. Bu metod o mezoniy va tanqidiy fikrlaşni (critical thinking) rivojlantiriş bilan birga, ingliz tili vositasida bahs-munozara olib boriş madaniyatini ham şakllantiradi. Bu kabi zamonaviy va interaktiv metodlar yoşlarning çet tilini tabiiy, oson va interaktiv tarzda örganişiga juda katta yordam körsatadi. Dars jarayonini öyin va munozaralar bilan boyitiş ta'lim oluvçilarning içki motivatsiyasini oşirib, ularning mustaqil va erkin muloqot qila oladigan mutaxassis bölib yetişişida muhim poydevor bölib xizmat qiladi [7, 12].

Çet tillarini öqitiş metodikasida kommunikativ yondaşuv alohida örin tutadi. Jack

(cc) BY

C. Riçards va Theodore S. Rodgers özlarining *«Approaçes and Methods in Language Teaçing»* nomli monografik tadqiqotida ta'kidlaganlaridek, til örganiş jarayoni faqatgina formal grammatik qoidalarni yodlaş bilan çeklanmasligi lozim [13,14]. Olimlarning fikriça, tilni egallaşning asosiy mexanizmi jonli muloqot, kontekstual qöllaniş va amaliy faoliyat orqali keçadi.

Bugungi kunda pedagogik amaliyotda köplab öqituvçilar ta'lim oluvçilarning motivatsiyasini uşlab turiş va dars samaradorligini oşiriş maqsadida turli interaktiv metodlardan unumli foydalanmoqdalar. Bu metodlar dars jarayonini qiziqarli qiliş bilan birga, öquvçilarning bir-birlarini tinglaş, tahlil qiliş hamda dunyoqaraşini kengaytirişlariga zamin yaratadi.

Uşbu amaliy jarayonlarning psixologik-pedagogik poydevori Lev Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi (Socio-cultural theory) bilan uzviy bog'liqdir [15]. Vygotskiy ta'lim oliş va şaxsiy rivojlaniş jarayonida ijtimoiy munosabatlar hamda jamoaviy hamkorlik yetakçi örin tutişini körsatib ötgan. Xususan, uning «Yaqin rivojlaniş zonasi» (*Zone of Proximal Development - ZPD*) konsepsiyasi örganuvçi mustaqil ravişda bajara olmaydigan vazifalarni tajribaliroq tengdoşi yoki öqituvçi kömagida muvaffaqiyatli amalga oşirişi mumkinligini isbotlaydi [16].

Şu sababli, ingliz tilini örgatişda kiçik guruhlarda işlaş, juftlikdagi muloqot va interaktiv maşğulotlar talabalarni darsda faol iştirok etişga, til birliklarini amalda qöllaşga undaydi. Biroq interaktiv metodlarning kutilgan natijani berişi ularning ta'lim maqsadiga töğri tanlangani, maşğulotning taşkiliy tuzilişi hamda öquvçilarning amaldagi til biliş darajasiga (*proficiency level*) qançalik mos kelişiga bevosita boğliqdir [17].

Asosiy qism. Interaktiv metodlarning yana bir muhim va ustuvor afzalligi şundaki, ular talabalarning ingliz tilida erkin fikrlaş, tahliliy mulohaza yuritiş hamda öz ğoyalarini aniq, izçil va ravon ifodalaş könikmalarini kompleks tarzda rivojlantirişga xizmat qiladi. Masalan, kiçik va katta guruhlarda taşkil etiladigan munozaralar hamda davra suhbatlari jarayonida talabalar muayyan muammoli mavzu yuzasidan öz şaxsiy qaraşlarini örtaga taşlaydilar, tengdoşlarining turliça fikr va munosabatlarini tinglab, ularga hurmat bilan yondaşişni örganadilar. Eng muhimi, ular öz nuqtai nazarlarini şunçaki şioriy emas, balki mantiqiy dalillar, faktlar va hayotiy misollar bilan asoslab berişga harakat qiladilar. Bu jarayon talabalarning nafaqat leksik va grammatik til bilimlarini boyitadi, balki ularda akademik muloqot madaniyati, nutqiy etika hamda baxs-munozara yuritiş san'atini şakllantiradi.

Şuningdek, interaktiv metodlardan unumli foydalaniş talabalarning darsga va til örganişga bölgan içki motivatsiyasi hamda qiziqişini sezilarli darajada oşiradi. An'anaviy pedagogik yondaşuvda dars jarayoni köpinça öqituvçi markazli (*teaçer-centered*) şaklda keçib, talabalar faqat tayyor bilimlarni passiv tinglovçi va konspekt qiluvçi sub'ekt sifatida çeklanib qolardilar. Interaktiv maşğulotlarda esa ta'lim markazi

(cc) BY

bevosita talabaga köçadi (*student-centered approaç*). Ular topşiriqlarni mustaqil yoki jamoaviy tarzda bajariş, muammoli savollarga kreativ javoblar izlaş hamda turli rolli va simulyatsion faoliyatlarda faol qatnaşiş imkoniyatiga ega böladilar. Natijada dars jarayoni bir xillikdan holi bölib, yanada dinamik, faol va mazmunli taşkil etiladi.

Ingliz tilini öqitişda interaktiv metodlarni qöllaşning yuqori samaradorligi ularni darsning aniq didaktik maqsadlari va bosqiçlariga muvofiq ravişda töğri tanlaş bilan bevosita boğliqdir. Har bir metod özining funksional yönalişiga ega bölişi lozim: masalan, talabalarning oğzaki nutqiy könikmalarini va ekspressiv muloqotini rivojlantiriş hamda nutqiy tösiqlarni olib taşlaş uçun Role-play (rolli öyinlar) metodidan foydalanilsa, yangi leksik birliklarni mustahkamlaş, ularning sinonimik va antonimik qatorlarini tezkor xotirada tiklaş uçun Hot Seat metodi eng maqbul yeçim hisoblanadi. Talabalarda mantiqiy va tanqidiy fikrlaş, uzviy argumentatsiya va akademik munozara könikmalarini şakllantiriş uçun esa Four Corners metodi yuqori metodik samara beradi. Bunday maqsadli yondaşuv har bir maşğulotni tasodifiy öyinlardan holi qilgan holda, aniq rejalaştirilgan ta'limiy natijaga yönaltirişga yordam beradi.

Biroq interaktiv metodlarni ta'lim amaliyotiga joriy etiş jarayonida bir qança pedagogik va psixologik qiyinçiliklar ham yuzaga kelişi mumkin. Jumladan, guruhdagi ba'zi talabalar ingliz tilida gapirişda kuçli psixologik tösiqqa duç kelişadi: ular notöğri gapirib qöyişdan qörqişadi, öz talaffuzlari va grammatik bilimlariga işonçsizlik bildiradilar yoki auditoriya oldida sözlaşga tortinib, uyalişadi. Bundan taşqari, guruhlarda til biliş darajasining har xilligi (*mixed-ability classes*) sababli faolroq va tilni yaxşi biladigan talabalar dars jarayonini töliq öz nazoratiga olib, passivroq talabalarning soya ostida qolib ketişiga olib kelişi mumkin. Şu bilan birga, vaqtni töğri taqsimlamaslik yoki metodik maşğulot qoidalarining aniq belgilab berilmasligi darsda tartibsizlik (xaos) kelib çiqişiga sabab bölişi ihtimolidan holi emas. Bu kabi omillar öqituvçidan nafaqat metodik mahoratni, balki har bir talabaning individual xususiyatlarini inobatga oluvçi qulay va xavfsiz ta'lim muhitini yaratişni talab etadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va zamonaviy pedagogik yondaşuvlardan foydalaniş tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, ingliz tilini öqitişda Quizizz, Kahoot, Wordwall va LearningApps kabi raqamli platformalar talabalarning darsga bölgan qiziqişini oşirişda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, öqituvçi yangi mavzuni tuşuntirib bölgaç, *Quizizz* yoki *Kahoot* platformalari yordamida tezkor onlayn viktorina taşkil qilişi mumkin. Bunda öquvçilar özlarining şaxsiy telefonlari orqali öyinga qöşilib, savollarga tezkorlik bilan javob beradilar. Ekranda paydo böladigan reyting jadvali (*leaderboard*) yoşlarda soğlom raqobat muhitini uyğotib, darsni zerikarli yodlaş jarayonidan qiziqarli musobaqaga aylantiradi. Xuddi şuningdek, *Wordwall* yoki *LearningApps* orqali tayyorlangan interaktiv öyinlar (masalan, sözlarni moslaştiriş, krossvordlar, «ğildirakni aylantiriş» maşqlari) yangi leksik birliklarni yoki

(cc) BY

grammatik qoidalarni oson, körgazmali va tez eslab qolişga yordam beradi. Uşbu raqamli vositalar yordamida öqituvçi nafaqat turli testlar, balki öquvçilarning darsdagi faolligini baholovçi interaktiv topşiriqlar ham taşkil qilişi mumkin. Natijada talabalar zerikarli qoidalarni yodlab ötirmasdan, amaliy jarayon orqali yangi bilimlarni osonroq özlaştiradilar hamda olgan bilimlarini mustahkamlaş imkoniyatiga ega böladilar.

Interaktiv metodlar ingliz tilining törtta asosiy nutqiy könikmasi - *tinglab tuşuniş (listening), gapiriş (speaking), öqiş (reading) va yoziş (writing)* malakalarini kompleks tarzda rivojlantirişga xizmat qiladi. Uşbu könikmalarning har biri muayyan interaktiv yondaşuvlar orqali amalda özining yorqin ifodasini topadi:

Oğzaki nutq va muloqot könikmasini rivojlantiriş: Masalan, juftlikda işlaş (*Pair work*) va rolli öyinlar (*Role-play*) talabalarning oğzaki nutqini rivojlantirişda eng samarali vositadir. Deylik, darsda «Restoranda» mavzusi ötilayotganda, öquvçilar juftliklarga bölinib, biri ofitsiant, ikkinçisi mijozi rolini bajaradi. Bu jarayon ularga çet tilidagi real muloqot muhitini yaratib beradi, nutqiy tösiqlarni va tortinçoqlikni yöqotadi. Guruhih muhokamalar va *Four Corners* kabi metodlar esa ularning öz fikrini ingliz tilida erkin, mantiqiy va işonçli ifodalaşiga yordam beradi.

Öqib tuşuniş könikmasini mustahkamlaş: Matnlar ustida işlaş va savol-javob maşqlari, masalan, *Jigsaw* (mozaika) metodi orqali taşkil etilganda, öquvçilar matnning turli qismlarini öqib, bir-birlariga tuşuntiradilar. Bu esa matn mazmunini çuqur anglaş, asosiy ğoyani ajratib oliş va öqib tuşuniş (*reading comprehension*) könikmasini yuqori darajada mustahkamlaşga xizmat qiladi.

Yozma nutq va grammatik savodxonlikni oşiriş: Turli yozma topşiriqlar, onlayn forumlar yoki loyiha işlari (*Project-based learning*) orqali talabalar özlari örgangan grammatik qoidalar va zamonlarni amaliyotda qöllaşni örganadilar. Masalan, öquvçilar kiçik guruhlarda ingliz tilida blog posti yoziş yoki özlarining kelajakdagi rejalari haqida esse tayyorlaş jarayonida imlo, tiniş belgilari va grammatik tuzilmalarni töğri qöllaş könikmasini şakllantiradilar.

Şu sababli, raqamli texnologiyalar va interaktiv metodlardan kompleks hamda maqsadli foydalaniş til örganiş samaradorligini keskin oşirib, öquvçilarni har tomonlama yetuk mutaxassis qilib tarbiyalaşda muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Interaktiv ta'lim jarayonida zamonaviy öqituvçining vazifasi faqat tayyor qoida va bilimlarni yetkazib beriş bilan çeklanib qolmaydi, balki u talabalarni mustaqil izlanişga, tanqidiy fikrlaşga, har qanday muammoli vaziyatga ijodiy yondaşişga ilhomlantiruvçi va yönaltiruvçi ustozga aylanişi lozim. Bunda öqituvçi har bir talabaning individual qobiliyatlari, psixologik xususiyatlari va til özlaştiriş tezligini çuqur hisobga olişi, ularning darsdagi har bir kiçik yutuğini öz vaqtida rağbatlantirib borişi muhim ahamiyat kasb etadi. Taniqli metodist Jeremy Harmerning ingliz tilini öqitişga oid ilmiy qaraşlarida ham aynan darsni samarali taşkil etiş, öquvçilarning içki motivatsiyasini doimiy qöllab-quvvatlaş va auditoriyada soğlom, xavfsiz psixologik

(cc) BY

muloqot muhitini yaratiş markaziy örin egallaydi. Masalan, Harmer öqituvçining rolini şunçactor (aktyor) yoki controller (nazoratçi) emas, balki köproq facilitator (kömaklaşuvçi, yönaltiruvçi) va resource (maslahatçi) sifatida namoyon etiş zarurligini ta'kidlaydi. Bu esa zamonaviy pedagogdan darsda qat'iy hukmronlik qilişni emas, balki talabalarga erkin ijodiy muhit yaratib beradigan taşkilotçilik va moderatorlik qobiliyatini talab etadi.

Kelajakda ingliz tilini öqitişda interaktiv metodlardan foydalaniş jarayoni yanada yuqori bosqiçga kötarilişi va tubdan özgarişi kutilmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt (*Artificial Intelligence*), aqlli onlayn ta'lim platformalari va immersiv multimedia vositalarining ta'lim jarayoniga jadal kirib kelişi öqitiş va örganiş uçun ulkan yangi imkoniyatlarni oçib bermoqda. Masalan, sun'iy intellektga asoslangan til örganiş ilovalari yoki çat-botlar orqali talabalar istalgan vaqtda real vaqt rejimida ingliz tilida jonli muloqot qiliş, öz talaffuzidagi xatolarni soniyalar içida aniqlab, ularni töğrilaş imkoniyatiga ega böladilar. Şu bilan birga, adaptiv ta'lim platformalari har bir öquvçining şaxsiy bilim darajasi va ehtiyojlaridan kelib çiqqan holda, unga moslaştirilgan maxsus interaktiv topşiriqlarni avtomatik tarzda tavsiya qiladi.

Biroq şuni alohida ta'kidlaş joizki, zamonaviy texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalari an'anaviy öqitiş usullarini hamda öqituvçining örnini butunlay almaştirmasligi, aksinça, ularni boyitişi va töldirişi lozim. Çunki tirik inson muloqoti, öqituvçi va talaba örtasidagi samimiy hamkorlik, şuningdek, auditoriyadagi guruhiy hamkorlik faoliyati til örganişning eng muhim va heç qanday texnologiya töliq qoplay olmaydigan tarkibiy qismlari hisoblanadi. Robot yoki dastur talabaning psixologik holatini, uning içki keçinmalari yoki tilni örganişdagi qörquvlarini tölaqonli his qila olmaydi. Şuning uçun ilğor raqamli texnologiyalar va klassik interaktiv metodlarni özaro uyğunlaştiriş orqali kelajakda ingliz tilini öqitiş samaradorligini eng yuqori çöqqiga olib çiqiş mumkin böladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bugungi globallaşuv va zamonaviy raqamlaştiriş davrida ingliz tilini öqitişda interaktiv metodlar hamda ilğor texnologiyalardan kompleks foydalaniş ta'lim sifatini oşirişning eng samarali omilidir. Jack C. Riçards va Theodore S. Rodgers ta'kidlagan kommunikativ yondaşuv hamda Lev Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasida körsatilgan yaqin rivojlaniş zonasi (ZPD) tamoyillari şuni körsatadiki, til bilimi faqat grammatik qoidalarni passiv yodlaş orqali emas, balki jonli muloqot, jamoaviy hamkorlik va real hayotiy simulyatsiyalar jarayonida şakllanadi. Darslarda Role-play, Hot Seat, Four Corners kabi pedagogik metodlarni darsning didaktik maqsadlariga muvofiq ravişda töğri tanlaş talabalarning oğzaki va yozma nutq, öqiş va tinglab tuşuniş kabi törtta asosiy könikmasini mutanosib rivojlantiradi. Şu bilan birga, Quizizz, Kahoot, Wordwall va sun'iy intellektga asoslangan raqamli vositalarning darsga joriy etilişi ta'lim oluvçilarning motivatsiyasini va mustaqil izlanuvçanligini oşirib, nutqiy tösiqlarni (psixologik

(cc) BY

qörquv va uyalişni) yengib ötişga xizmat qiladi. Jeremy Harmer ta’riflaganidek, öqituvçining darsdagi örni ta’lim jarayonining markaziy nazoratçisidan ta’limni yönaltiruvçi va rağbatlantiruvçi facilitator (kömaklaşuvçi) darajasiga kötarilişi muhimdir. Texnologiyalar va interaktiv metodlar an’anaviy ta’limni almaştirmasdan, aksinça, jonli muloqot va ustoz-şogird hamkorligi bilan uyğunlaşgandagina kutilgan yuqori samaradorlikni beradi. Aynan şunday maqsadli, har bir talabaning individual imkoniyatlarini hisobga oluvçi interaktiv yondaşuv ingliz tili darslarini yanada qiziqarli, mazmunli va samarali taşkil etiş hamda kelajakda erkin muloqot qila oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlaşning mustahkam poydevori bölib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.

2. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching (5th ed.). Pearson Longman.

3. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). Techniques and Principles in Language Teaching (3rd ed.). Oxford University Press.

4. Wright, A., Betteridge, D., & Buckby, M. (2006). Games for Language Learning (3rd ed.). Cambridge University Press.

5. Thornbury, S. (2002). How to Teach Vocabulary. Pearson Education Limited.

6. Kagan, S. (1994). Cooperative Learning. Kagan Cooperative Learning.

7. Ur, P. (2012). A Course in English Language Teaching (2nd ed.). Cambridge University Press.

8. Beknazarova Iroda Yormamatovna. (2025). A General Approach to the Analysis of the Cognitive and Functional Features of Indirect Naming in Texts. Spanich Journal of Innovation and Integrity, 42, 473–478. Retrieved from https://www.sjii.es/index.php/journal/article/view/614

9. Beknazarova, I. Y., & Nosirova, R. A. (2022). Adaptation of students in a higher educational institution: analysis of problems, search for resources. ОАКда эътироф этилган “Сервис” илмий-амалий журнали,

10. Beknazarova, I. Y., & Jo‘rayeva, D. U. (2025). Bilvosita nomlashning umumnazariy muammolari (ingliz tili misolida). Axborotnoma, 6(148/2), 5-13. https://axborotnoma.uz/en/research/3247/

11. Yormamatovna, B. I., & Usmonalievna, J. D. (2023). The role of competency elements in teaching English sounds and their pronunciation. Int. J. Lit. Lang., 3(02), 4-6. https://doi.org/10.37547/ijll/Volume03Issue02-02

12. Beknazarova, I. Y., & Qilicheva, M. M. Q. (2026). How are social media changing the lives of young people? Science and Education, 7(5), 223-225. https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/8862

(cc) BY

13. Iroda Yormamatovna Beknazarova, & Zarina Fozil-qizi Sayfullayeva. (2026). Tilning kelib chiqishi masalalari va tilshunoslik fanining shakllanishiga doir nazariy qarashlar. Science and Education, 7(6), 302–309. Retrieved from https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/8991

14. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching (3rd ed.). Cambridge University Press.

15. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

16. Lantolf, J. P., & Thorne, S. L. (2006). Sociocultural Theory and the Genesis of Second Language Development. Oxford University Press.

17. Harmer, J. (2015). The Practice of English Language Teaching (5th ed.). Pearson Longman.